

## MOTOR ALALIYAGA EGA BO‘LGAN BOLALAR VA ULARNING RIVOJLANISH XUSUIYATLARINI O‘RGANISH.

*Sulaymanova Muhlisa Kozimjon qizi*

*Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti*

*Maxsus pedagogika (logopediya) yo‘nalishi*

*1 bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Alfraganus universiteti*

*v.b dotsent PhD Utbasarova Umida.M*

*[Muhlisasulaymonova37@gmail.com](mailto:Muhlisasulaymonova37@gmail.com)*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada motor alaliya — bolaning nutq markazlari zararlanishi natijasida yuzaga keladigan nutqiy rivojlanish nuqsoni keng va chuqur yoritilgan. Alaliyaning kelib chiqish sabablari prenatal, natal va postnatal omillar orqali izohlangan. Maqolada alaliyaning turlari — motor, sensor va aralash shakllari haqida batafsil ma’lumot berilgan hamda ayniqsa motor alaliyaning klinik ko‘rinishlari, psixologik va nevrologik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu holatda bolalarda uchraydigan nutqiy, leksik-grammatik, artikulyatsion va fraza nutqi muammolari tavsiflangan. Alaliyaning erta tashxisi, logopedik terapiya va boshqa rehabilitatsiya usullari orqali davolash muhimligi alohida ta’kidlangan. Maqola, alaliya bilan og‘rigan bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda tizimli, komple

**Kalit so‘zlar:** Motor alaliya Bolalar nutqiy rivojlanishi Nutq nuqsonlari Prenatal omillar Logopedik terapiya Sensor alaliya Psixomotor rivojlanish Artikulyatsion muammolar Nutq markazi Nevrologik buzilish Fraza nutqi Alaliyaning davolash usullari M uloqot qobiliyati Reabilitatsiya

Motor alaliyaga ega bo‘lgan bolalar va ularning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish.

Alaliya — bolaning prenatal yoki hayotining dastlabki rivojlanish davrida bosh miya yarim sharlari nutq zonalarining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan patologik holat bo‘lib, u normal fiziologik eshitish va intellekt saqlangan holda nutqning yo‘qligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat bolaning nutqiy rivojlanishida sezilarli cheklovlar va kechikishlarga olib keladi.

Alaliya holatida bolaning eshitish va intellekt darajasi saqlangan bo‘lsa-da, nutq shakllanishi sezilarli darajada kechikadi yoki umuman rivojlanmaydi. Alaliyaning rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillar prenatal (homiladorlik davridagi), natal (tug‘ruq vaqtida yuzaga keluvchi) va postnatal (tug‘ruqdan keyingi) bo‘lishi mumkin. Prenatal omillarga homiladorlik davrida ona organizmidagi patologiyalar, masalan, gipoksiya,

toksikoz, yuqumli kasalliklar (qizamiq, toksoplazmoz, qizilcha va boshqalar), onaning og‘ir anemiyasi yoki surunkali kasalliklari, homiladorlik paytida qabul qilingan zararli dorilar yoki toksik moddalarning ta‘sirini kiradi. Natal omillar tug‘ruqning og‘ir kechishi, asfiksiya (kislrod yetishmovchiligi) va tug‘ruq travmalarini o‘z ichiga oladi. Postnatal omillar esa hayotning ilk yillarida bosh miya shikastlanishi yoki jarohati, neyroinfeksiyalar (ensefalit, meningit) va uzoq davom etgan intoksikatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Alaliya turli xil sabablarga ko‘ra rivojlanishi mumkin, lekin tadqiqotchilar uning shakllanish mexanizmi va og‘irlik darajasidan qat‘i nazar, umumiy tasnifga ega ekanligini aniqlashgan. Shu sababli, mutaxassislar alaliyaning qanday turlari borligini aniqlab, ularni guruhlariga ajratishgan. Hozirgi kunda logopedlar tomonidan alaliyaning V.A. Kovshikov tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiyasidan keng foydalaniladi. Ushbu tasnifga ko‘ra, alaliya quyidagi turlarga bo‘linadi: ekspressiv (motor), impressiv (sensor) va aralash (sensomotor yoki motosensor) alaliya. Klinik kuzatuv natijalariga ko‘ra, ekspressiv alaliya retseptiv (sensor) alaliyaga qaraganda ancha keng tarqalgan; Aniq statistik ma‘lumotlar yo‘q.

Motor alaliya bolaning nutq markazlari joylashgan bosh miya qismlarining erta shikastlanishi natijasida rivojlanadi. Bu shikastlanish tufayli bola atrofdagilarning gaplarini eshita ham, o‘zi faol gapira olmaydi yoki so‘zlarni to‘g‘ri shakllantirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Zararlangan sohaga qarab, motor alaliyaning ikki turi farqlanadi: afferent motor alaliya va efferent motor alaliya. Afferent motor alaliyada bosh miyaning pastki po‘stlog‘ining shikastlanishi natijasida artikulyatsiya apparatining motor koordinatsiyasi buziladi, bu esa bolaning individual tovushlarni aniqlash va talaffuz qilishida qiyinchiliklarga olib keladi. Efferent motor alaliya esa Broka markazining shikastlanishi natijasida yuzaga kelib, so‘zlar va jummalarni izchil, grammatika qoidalariga mos holda tuzish jarayonining buzilishi bilan tavsiflanadi. Bunday bolalar bir so‘zli iboralar bilan cheklanib qolishi yoki nutqini izchil rivojlantira olmasligi mumkin.

Sensor alaliya bosh miyaning eshitish va nutqni tushunish bilan bog‘liq sohalari shikastlanganda rivojlanadi. Bu holatda bola eshitish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, so‘zlarni anglab yetishda qiyinchilikka duch keladi. Natijada u atrofdagilarning gaplarini to‘liq tushunmaydi yoki noto‘g‘ri talqin qiladi, bu esa tovushlarini analiz va sintez qilish jarayonining buzilishiga olib keladi. Sensor alaliyalik bolalar odatda atrofdagi odamlarning gaplarini to‘liq tushunmaydi yoki so‘zlarni noto‘g‘ri talqin qiladi, bu esa ularning nutqiy rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi.

Aralash alaliya (sensomotor yoki motosensor) esa motor va sensor alaliyaning birgalikda namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bu holatda bolaning bosh miyasidagi nutq bilan bog‘liq markazlari va uning ostidagi tuzilmalari bir vaqtning o‘zida shikastlangan bo‘ladi. Natijada bola nafaqat so‘zlarni tushunishda, balki ularni

shakllantirish va ifodalashda ham katta qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu turdagi alaliya og‘ir kechishi mumkin bo‘lib, bolaning nutqiy va kommunikativ rivojlanishini jiddiy darajada cheklaydi.

Motor alaliya bilan bog‘liq nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Nutqiy harakatlarning buzilishi - motor alaliya bilan og‘rigan bolalar tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda qiynaladilar, ba‘zan esa umuman gapira olmaydilar. Ularda artikulyatsion mushaklarning sustligi yoki diskoordinatsiyasi kuzatiladi. Bu esa to‘g‘ri tovush hosil qilish va gapirish jarayonini murakkablashtiradi. Bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi yoki ularni almashtirib qo‘yadi. Ba‘zi tovushlarni aytish qiyin bo‘lishi sababli, ular talaffuz qilinmaydi yoki buzilgan holda chiqariladi. Tovushlar o‘rtasidagi farqlarni yaxshi ajrata olmaydilar.

Leksik-grammatik tizimning sust rivojlanishi - bunday bolalar so‘z boyligining cheklanganligi, so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatish va grammatik shakllarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan, fe’llarni vaqt bo‘yicha noto‘g‘ri qo‘llash, ot va sifatlarni kelishik qo‘shimchalarisiz ishlatish, so‘zlarning to‘g‘ri shaklini tanlashdagi xatoliklar keng tarqalgan. So‘z boyligi juda sust rivojlanadi, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish qiyin kechadi. So‘z birikmalari va gap tuzishda muammolar bo‘ladi.

Fraza nutqining yetarlicha rivojlanmaganligi - gap qurish va uzluksiz fikr ifodalash qobiliyati zaif bo‘ladi. Natijada, bolaning so‘z birikmalari oddiy va cheklangan bo‘lib, uzoq va murakkab gaplarni tuza olmaydi. Ba‘zan ular faqat alohida so‘zlarni aytish bilan cheklanishadi.

Tushunish qobiliyatining nisbatan saqlanganligi - motor alaliya tashxisiga ega bolalar odatda atrofdagilarning nutqini tushunishadi, ammo og‘zaki javob berishda yoki mustaqil gapirishda muammolarga duch keladilar. Ularning passiv so‘z boyligi faol so‘z boyligiga nisbatan ancha rivojlangan bo‘ladi.

Psixomotor rivojlanishdagi xususiyatlar - bunday bolalar nafaqat nutqiy, balki umumiy motorik qobiliyatlarning sustligi bilan ham ajralib turadi. Ular harakatlarni muvofiqlashtirishda, mayda motorika bilan bog‘liq faoliyatlarda (masalan, yozish, rasm chizish, tugmalarni qadalash) qiyinchiliklarga ega bo‘lishlari mumkin. Bu esa nutqiy harakatlarning yanada qiyinlashishiga sabab bo‘ladi. Motor alaliya bolalarning nutqiy rivojlanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan murakkab nutqiy nuqson bo‘lib, u individual va tizimli yondashuvni talab qiladi. Vaqtida va to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik va logopedik ishlar bolaning nutqiy rivojlanishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Alalik bolalarda idrokning buzilganligi ayniqsa rasmlarni chizishda kuchli namoyon bo‘ladi: rasm va tasvirlar detallar miqdorining kamligi, oddiyliqi, soddaligi, murakkab emasligi bilan ajralib turadi, shuningdek, optik atrof-muhitni idrok etishdagi

buzilishlarning miqdori bilan xarakterlanadi. Alaliyaning davolash usullari uning darajasi, kelib chiqish sababi va og'irligiga qarab belgilanadi. Eng samarali va keng qo'llaniladigan usullardan biri logopedik terapiya bo'lib, bu usul bolaga nutqini rivojlantirishda maxsus mashg'ulotlar orqali yordam beradi. Nutq terapevti bolada nutq apparati funksiyalarini faollashtirish, so'z boyligini oshirish, grammatik tuzilmani shakllantirish va muloqot qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlaydi. Bunday terapiya uzoq muddatli bo'lib, individual yondashuvni talab etadi.

Bundan tashqari, agar alaliya jismoniy nuqsonlar yoki mushaklarning noto'g'ri ishlashi bilan bog'liq bo'lsa, maxsus tibbiy va fizioterapevtik muolajalar ham qo'llaniladi. Miofunktsional terapiya yuz mushaklari va nutq apparati harakatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan bo'lib, u logoped va fizioterapevtlar tomonidan olib boriladi. Ushbu terapiya nafaqat nutq rivojlanishiga, balki yutish, nafas olish va ovoz chiqarish funksiyalarini yaxshilashga ham yordam beradi.

Nutqning shakllanishi bolaning markaziy asab tizimi rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli, alaliyaning oldini olishda homilaning to'g'ri rivojlanishiga e'tibor qaratish muhimdir. Homiladorlik davrida ona organizmidagi har qanday buzilish, masalan, infeksiyalar, toksik moddalar ta'siri, kislorod yetishmovchiligi yoki tug'ruq jarayonidagi jarohatlar bolada miya rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun onaning sog'lig'ini muntazam kuzatish, zarur vitamin va minerallarni qabul qilish, stressdan himoyalash va xavf omillarini kamaytirish lozim.

Bola tug'ilganidan keyin uning nutq rivojlanishini muntazam kuzatib borish, agar sust rivojlanish yoki nutq kechikishi belgilari sezilsa, erta tashxis qo'yish muhim ahamiyatga ega. Alaliyaning dastlabki belgilari bola ikki yoshga yetganda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, bola yoshiga mos ravishda so'z boyligini oshirmasa, so'z birikmalarini qo'llay olmasa yoki muloqot qilishga qiziqmasa, bu logoped va nevrolog maslahati zarurligini ko'rsatishi mumkin. Erta tashxis va terapevtik aralashuv bolaning kelajakda nutq va ijtimoiy muloqot qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Alaliyani bartaraf etishda bilish faoliyatini rivojlantirish, tovush va morfologik tahlillarni hosil qilish, nutqning ma'no tomonlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus metodikalar qo'llaniladi. Alaliyani davolash jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash ham muhim rol o'ynaydi. Nutq buzilishi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi, ijtimoiy muloqotdan chetlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday bolalar bilan psixolog va defektolog mutaxassislari ham ishlashi kerak. Ota-onalar esa farzandlarining nutq rivojlanishiga e'tiborli bo'lishlari, muloqotni rag'batlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari lozim. Bolaga tushunarli va oddiy gaplar bilan murojaat qilish, savollarga javob berishga undash va birgalikda kitob o'qish kabi usullar nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda motor alaliya belgilari nevrologik, psixologik va nutq terapiyasi jihatidan farqlanadi. Nevrologik jihatdan, motorli alaliyaga chalingan bolalar

harakatlarni muvofiqlashtirish va nozik vosita mahoratining buzilishi bilan ajralib turadi. Ular tez-tez yiqilib tushadi, tugmachalarni bosish, boshqotirmalarni yig‘ish kabi mayda motorika talab qiladigan vazifalarni bajarishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi.

Psixologik jihatdan, motor alaliya bolalarning xulq-atvorida o‘ziga xos o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ular haddan tashqari faollik va nafaollik (to‘siqlik) davrlari o‘rtasida almashinishi mumkin. Xotiraning, ayniqsa tovushlar bilan bog‘liq xotiraning pasayishi kuzatiladi. Shuningdek, e‘tibor yetishmovchiligi va diqqatni jamlashda muammolar kuzatiladi. Ular tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda qiynaladi, so‘zlarni buzib talaffuz qiladi, bo‘g‘inlarni tushirib qoldiradi yoki ortiqcha qo‘shib yuboradi, ularning o‘rnini o‘zgartiradi yoki fonetik jihatdan o‘xshash bo‘lgan tovushlar bilan almashtiradi. Bu esa ularning nutqining tushunarsiz bo‘lishiga olib keladi.

So‘z boyligi sezilarli darajada cheklangan bo‘lib, bola ba‘zan ma‘lum bir so‘zning ma‘nosini to‘liq tushunmaydi yoki uni noto‘g‘ri ishlatadi. Gaplar odatda 1-3 bo‘g‘indan iborat bo‘lib, fe‘l, sifat yoki grammatik qo‘shimchalardan foydalanish kamaygan bo‘ladi. Otlar asosan nominativ holatda qo‘llanadi. Matnni qayta aytib berish yoki voqeani izchil tarzda bayon qilishda bolalar jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar.

Motor alaliyaning og‘ir shakllarida bolalar nutqni butunlay yo‘qotishi mumkin. Bunday hollarda ular imo-ishoralar, mimikalar hamda g‘o‘ng‘irlash va onomatopeyalar orqali o‘z fikrlarini ifodalashga harakat qiladilar. Nutq terapiyasi, psixologik va nevrologik muolajalar bunday bolalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, erta tashxis va to‘g‘ri reabilitatsiya nutq rivojlanishining yaxshilanishiga yordam berishi mumkin.

Motor alaliya – bu bolalarning nutq apparati to‘liq sog‘lom bo‘lishiga qaramay, miyaning nutq markazlari zararlangani sababli nutq faoliyatining buzilishi bilan tavsiflanadigan nevrologik holatdir. Ushbu patologiya odatda erta bolalik davrida shakllanadi. Motor alaliyalik bolalar atrof-muhitdagi nutqni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishlari mumkin, biroq ularning so‘zlarni talaffuz qilish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap qurish hamda bog‘liq nutqni shakllantirish jarayonida sezilarli qiyinchiliklar kuzatiladi.

Nutqning to‘laqonli rivojlanishi bola shaxsining shakllanishi va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynaydi. Agar bola nutqida kechikish yoki rivojlanish nuqsonlari kuzatilsa, bu uning psixologik va ijtimoiy holatiga ta‘sir qilishi mumkin.

Umuman olganda, alaliyaning oldini olish va davolash tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Nutq inson tafakkurining eng oliy shakli bo‘lib, uning rivojlanishi bolaning kelajakdagi ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir

ko'rsatadi. Shu sababli, alaliyaning ilk belgilari paydo bo'lishi bilan mutaxassislarga murojaat qilish va kerakli chora-tadbirlarni ko'rish juda muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология. — Москва: Академия, 2000. — 456 б.  
(Nutqiy rivojlanish va psixologik xususiyatlar, 112–124-betlar)
2. Леонтьев А.Н. Речь и развитие психики ребёнка. — Москва: Наука, 1981. — 328 б. (Nutq shakllanishi va kechikish sabablari, 56–89-betlar)
3. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. — Москва: МГУ, 1973. — 512 б.  
(Broka zonasi, afferent va efferent alaliya mexanizmi, 143–170-betlar)
4. Мамедова Н.Ж. Logopediya. — Toshkent: O'qituvchi, 2004. — 240 b.  
(Alaliyaning klinik ko'rinishlari va tasnifi, 101–117-betlar)
5. Nurmatov D. Bola nutqining rivojlanishi va uni o'rganish metodikasi. — Toshkent: Fan, 2012. — 198 b.  
(Nutqiy buzilishlar turlari, logopedik ishlar, 87–110-betlar)
6. Qodirova N.X. Logopediya asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. — 176 b.  
(Motor alaliya bilan ishlash usullari, 58–72-betlar)
7. Axmedova M.A., To'xtayeva G.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. — 213 b.  
(Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish bosqichlari, 133–147-betlar)
8. Karimova N.M. Nutqiy rivojlanishda kuzatiladigan buzilishlar. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 157 b.  
(Nutq kechikishining sabab va ko'rinishlari, 61–80-betlar)
9. Islomova D.S. Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — 194 b.  
(Alaliyani tuzatishdagi metodik yondashuvlar, 99–116-betlar)
10. G'ofurova M. Defektologiya asoslari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. — 205 b.